Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

FITRAT, BEHBUDIY VA CHO‘LPON IJODIDA ALISHER NAVOIY AN’ANALARI

Odilova Nozimaxon

FarDU Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy adabiy merosining jadid adabiyoti namoyandalari — Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulhamid Cho‘lpon ijodiga ta’siri tahlil qilinadi. Jadid adiblari ijodida Navoiyga xos ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ona tiliga muhabbat va komil inson g‘oyalari davom ettirilgani yoritiladi.

Abstract

This article analyzes the influence of Alisher Navoi's literary heritage on the works of the leading figures of Jadid literature—Abdurauf Fitrat, Mahmudkhoja Behbudi, and Abdulhamid Cholpon. It highlights how the Jadid writers continued Navoi's ideas of enlightenment, national awakening, love for the mother tongue, and the concept of the "Perfect Human" (insan al-kamil).

Kalit so‘zlar

Alisher Navoiy, jadidchilik, Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, adabiy an’ana, o‘zbek adabiyoti.

Keywords

Alisher Navoi, Jadidism, Fitrat, Behbudi, Cholpon, enlightenment, national awakening, literary tradition, Uzbek literature

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Alisher Navoiy asrlar davomida turkiy xalqlar ma’naviyati va adabiy tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin egallab kelgan. Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki davlat arbobi, ma’rifatparvar va milliy til himoyachisi sifatida ham tarixda muhim iz qoldirdi. Uning asarlarida ilgari surilgan ilm-ma’rifat, komil inson, adolat va xalqparvarlik g‘oyalari keyingi davr adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

XX asr boshlarida shakllangan jadid adabiyoti ham Navoiy merosidan samarali foydalandi. Jadid adiblari xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifatni yoyish va milliy o‘zlikni anglash masalalarida Navoiy an’analariga tayandilar. Ayniqsa, Fitrat, Behbudiy va Cho‘lpon ijodida bu ta’sir yaqqol namoyon bo‘ladi.

Fitrat jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, o‘z asarlarida millat taraqqiyoti va ma’rifat masalalariga alohida e’tibor qaratgan. U Navoiyni turkiy xalqlarning buyuk ma’naviy timsoli sifatida ulug‘laydi.

Navoiy singari Fitrat ham ona tilining qadr-qimmatini yuksak baholaydi. Navoiy turkiy til imkoniyatlarini badiiy jihatdan namoyish qilgan bo‘lsa, Fitrat milliy tilni rivojlantirish va uni ilm-fan tiliga aylantirish g‘oyasini ilgari suradi. Har ikki ijodkor uchun ham millat ravnaqi ilm-ma’rifat bilan bog‘liq tushunchadir.Aynan Navoiy shaxsiga oid ilk ilmiy izlanish ham Fitrat olib borilgan bo‘lib bu jarayon adabiyot tariximizda quyidagicha namoyon bo‘lgan: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo‘lyozmalar jamg‘armasida muallifi ko‘rsatilmagan “Insoniyat haqqinda Navoyining fikri” nomli risola saqlanadi.Ilmiy hay’at faollaridan biri Laziz Azizzodaning xotirlashicha, ilmiy safar natijasida qo‘lga kiritilgan materiallarni sinchiklab o‘rganib chiqqan Fitrat ularning ayrimlarini,ayniqsa, Navoiyning “Xamsa”siga kirgan

dostonlari matnini chuqur o‘rgangan va nashrga tayyorlagan hamda bir qismini “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1-jild) majmuasida chop ettirgan.[1]Fitratning publitsistik maqolalari va dramatik asarlarida xalqni uyg‘otish, jaholatga qarshi kurash va zamonaviy tafakkurni shakllantirish masalalari yetakchi o‘rin tutadi. Bu jihatlar Navoiy ijodidagi ma’rifatparvarlik ruhiga yaqin turadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri sifatida xalq ma’naviyatini yuksaltirishni asosiy maqsad deb bilgan. Bu jihatdan u Navoiy an’analarining davomchisi hisoblanadi.Navoiy asarlarida ilm va tarbiya inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Behbudiy esa bu g‘oyani amaliy faoliyat bilan bog‘lab, yangi usul maktablarini tashkil etishga katta hissa qo‘shdi. U yosh avlodning zamonaviy bilim olishi millat kelajagini belgilashini ta’kidlaydi.Behbudiy publitsistikasida jamiyatdagi muammolar, savodsizlik va ijtimoiy orqada qolish tanqid qilinadi. Bu esa Navoiy asarlaridagi adolat va xalq manfaatini himoya qilish g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Cho‘lpon o‘zbek she’riyatida badiiy mahorati va lirik tafakkuri bilan ajralib turadi. Uning ijodida Navoiy an’analari ayniqsa poetik uslub va inson ruhiyatini tasvirlashda seziladi.Navoiy she’riyatidagi nozik lirizm, ramziy obrazlar va chuqur falsafiy mushohada Cho‘lpon ijodida yangicha ruhda davom ettiriladi. Shoirning erk, ozodlik va milliy uyg‘onish haqidagi qarashlari Navoiy ilgari surgan insonparvarlik va adolat g‘oyalari bilan mushtarakdir.Cho‘lpon she’rlarida inson qalbining iztiroblari, millat dardi va ozodlikka intilish badiiy jihatdan ta’sirchan ifodalangan. Shu sababli u Navoiy an’analarini zamonaviy o‘zbek she’riyatida davom ettirgan ijodkorlardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy merosi jadid adabiyoti rivojida muhim manba vazifasini bajardi. Fitrat, Behbudiy va Cho‘lpon o‘z ijodlarida Navoiyning ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ona tiliga muhabbat va komil inson haqidagi qarashlarini davom ettirdilar. Alisher Navoiy ham, jadidlar ham mafkurachi odamlar bo‘lgan. Ular tarix zimmalariga yuklagan vazifani bekam-u ko‘st ado etib – g‘oyaviy-nazariy dasturni o‘rtaga qo‘ya oldilar. Uni hayot voqeligiga aylantirmoq uchun zarur bo‘lgan siyosiy kuch, siyosiy iroda ham yo‘q bo‘lmagan.

Til bobida jadid ma’rifatparvarlari zamon taqozosi bilan Navoiydan bir qadam olg‘a ketdilar. XX asr avvali dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy, xususan, iqtisodiy munosabatlar kuchaya boshlagan, taraqqiyot yo‘liga tushib olish hamma sohalarda tig‘iz aloqalarni talab qilayotgan davr bo‘lgan. Zamon ruhini teran anglagan jadid ziyolilari hali-hamon bo‘z to‘qish-urchuq yigirish bilan mashg‘ul millatdoshlarini xorijiy tillarni o‘rganish, jahondagi ilg‘or ilm-u fan, sanoat yutuqlarini o‘zlashtirishga chaqiradi. Avvaliga Avaz O‘tar “Har tilni biluv emdi bani odama jondur” deb yozadi. 1913-yilda esa Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘sha mashhur “Ikki emas, to‘rt til lozim!” shiori bilan chiqadi. O‘zi to‘rt farzandini arab, rus, turk va fors tillarini mukammal biladigan darajada tarbiyalab voyaga yetkazadi. Is’hoqxon Ibrat rus, ingliz, fransuz, arab, fors, hind-urdu kabi o‘nga yaqin tillarni, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o‘rganadi; olti tilli (arab, fors, hind, turk, o‘zbek va rus) “Lug‘ati sitta al-sina”ni tuzadi. Davr taqozosi bilan jadid bobolarimizning aksari arab, fors, usmonli turk, tatar, ozarboyjon, ruschada bemalol muloqot qila olgan. O‘shanda ham xuddi hozirgi singari til bilish dunyo taraqqiyotiga uyg‘unlashuvning asosiy shartlaridan biri sanalgan.[2]Jadidchilik harakatining virtual olamdagi ko‘zgusi sifatida faoliyat olib borayotgan **jadid.uz** sayitida ham mazkur mavzu

[1] “ALISHER NAVOIY HAQIDA JADID ADABIYOTSHUNOSLIGINING ILK RISOLASI “ maqolasi Hamidulla Boltaboyev O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

[2] Nodira OFOQ maqolasidan olindi “Tafakkur” jurnali, 2020-yil 3-son

doirasida Navoiy va jadidchilik harkatidagi uyg'unliklarga oid bir maqola e'tiborimni tortdi,quyida shu bilan bo‘lishaman. “XIX asr oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidlik harakatining faol ziyolilari o‘zbek mumtoz adabiyotiga doir turli masalalariga e'tibor qaratishdi. Xususan, mumtoz adiblar shaxsiyati, ijodi, asarlarining topilishi va ular ijodini maktablarda o‘qitishga ham befarq bo‘lmadilar. Turkiston jadidlari otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy bir necha maqolasida Alisher Navoiy nomini tilga oladi. “Tujjor” gazetasining 1907-yil 10–11-sonlarida bosilgan “Islohi tahsil” maqolasida maktab muallimlari o‘z o‘quvchilariga an'anaviy o‘laroq sharq adabiyoti tarixidagi asarlarni, jumladan, Navoiy merosini o‘qitishlarini ta'kidlaydi. Ammo bola tafakkuriga sharq mumtoz adabiyoti og‘irlik qiladi.Hatto “…bechora maktabdorlardan yuzda beshi bu kitoblarni zo‘rg‘a o‘qub fahmlamog‘i” mumkin. Bu masala Behbudiyga tinchlik bermagani uchun ham orada yana 1909-yili “Tarjimon” gazetasining 14-sonida “Turkistonda maktab lisoni” maqolasini e'lon qiladi va Sharq mumtoz adabiyotini tushunish, tushuntirish, qaysi tilda o‘qish va o‘qitish masalalariga qayta murojaat etadi. Anglash va fahmlash, o‘qilgan kitoblardan ma'naviy ozuqa olish – bu masalalar jadid muallimlarini befarq qoldirgan emas.

Abdulhamid Cho‘lpon 1924-yili “500-yil” nomli maqolasida “Usmonli adabiyotining eng ulug‘ vakili bo‘lg‘on Fuzuliyni mashhur usmonli yozuvchisi Shamsiddin Somibek Navoiydan keyinga qo‘yib ko‘rsatadir. Mana bu ham Navoiyning birgina o‘zbek qavmi adabiyotida emas, umumturk xalqi adabiyotida ham o‘ziga yarasha joy olg‘onini ko‘rsatadir”, deb yozadi. Cho‘lpon Navoiyni yodga olish zaruratiga doir boshqa bir qiyosini ham aytadi: “Ruslar Pushkinni har besh yili uchun ham katta bayramlar yasaydirlar. G‘arbda esa unday bayramlar juda katta tantanalar bilan o‘tkaziladir. Bu to‘g‘rida gapni cho‘zib o‘ltirish hojat emas. Ko‘z bilan ko‘rganimiz ham yetib ortarliqdir”. Adabiy-ilmiy muhitdagi voqelik shunday bo‘lgach, umumturkiy adabiyotning ulkan namoyandasi Alisher Navoiyning xizmatlarini xotirlash davr ehtiyoji ekanini “o‘zbek bilim hay'ati e'tibori”ga havola qiladi. Ayni hay'at uchun “Navoiyning bosilmag‘on asarlarini topib, bosdirish”, “Navoiyning mukammal tarjimai holi”ni yozdirish, “Navoiyning shevalaridan terma bir asar tuzilib, nafis qilinib” nashr etish, “Navoiy nomig‘a yuqori o‘qish yurtlarining adabiyot-til fakultalarida o‘zbek talabalari uchun stipendiyalar” tashkil etish, “O‘zbekistonning poytaxtida Navoiyga haykal” o‘rnatish, “ba'zi bir o‘zbek shaharlarining ko‘cha ismlarini Navoiy oti” bilan nomlash kabi takliflar beradi. O‘tgan bir asr Alisher Navoiy shaxsiyati bashariyat adabiy tafakkuri tarixida beqiyos o‘ringa ega va o‘z davrida Abdulhamid Cho‘lpon bergan takliflar naqadar o‘rinli, hayotiy ekanini isbotladi.”[3]

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy hayoti va ijodini maktablarda o‘qitish muammolari jadidlar tomonidan o‘rtaga qo‘yildi. Ikkinchidan, jadid ziyolilari Alisher Navoiy fenomenini yuksak martabalarga ko‘tarib, bashariyat oldidagi tarixiy xizmatlariga to‘g‘ri baho berishdi. Uchinchidan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini targ‘ib etish, adabiy biografiyasini atroflicha yoritish ham jadid navoiyshunoslari zimmasiga tushdi. To‘rtinchidan, jadid navoiyshunoslari orasida o‘zbek olimlaridan tashqari turk, ozarbayjon, qrim-tatar millatiga mansub olimlar ham bor.Bugun global olamda navoiyshunoslik fan tarmog‘i dunyo miqyosiga chiqdi va bu adabiy-nazariy hodisaning ayni holatga kelishida, tabiiyki, jadid ziyolilari ham munosib hissa qo‘shdilar.Jadidlar muhitidan boshlangan Alisher Navoiy hayoti va ijodini tadqiq etish, asarlarini nashr qilish, nomlari bilan turli muassasa, ko‘cha va kutubxonani atash ishlari XX asrda davom etdi. Bugun shu ezgu ishlar davomi o‘laroq, o‘zbek va dunyo olimlari Alisher Navoiy badiiy-estetik olamini o‘rganmoqda. Noshirlar asarlarini o‘girib nashr qilmoqda.

[3]“NAVOIYNING OTINI OLTIN BILAN YOZAYLIK…” maqolasi Bahodir KARIM, filologiya fanlari doktori.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xamsa — Toshkent, G‘afur G‘ulom nashriyoti.
2. Fitrat. “Tanlangan asarlar”. Toshkent.
3. Behbudiy. “Saylanma”. Toshkent.
4. Cho‘lpon. “Yana oldim sozimni”. Toshkent.
5. Izzat Sulton. “Adabiyot nazariyasi”.
6. Naim Karimov. Jadid adabiyoti haqidagi ilmiy tadqiqotlar.
7. https://jadid.uz sayiti
8. https://oyina.uz sayiti
9. https://uzresearchers.com sayiti
10. Adabiyot parchalari / Jadid kulliyoti.T.: Zabarjad media